

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-A kurs
talabasi

SAPAROVA YULDUZXONNING

«O'zbek tili o'qitish metodikasi va
nazariyasi» fanidan

“9-SINFDA «SINTAKSIS» BO'LIMINI O'QITISHNING
O'ZIGA XOS LISONIY-DIDAKTIK OMILLARI”
mavzusida yozgan

KURS ISHI

ILMIY RAHBAR:

p.f.n. Sh.Bo'ranova

MAVZU: 9-sinfda «Sintaksis» bo'limini o'qitishning o'ziga xos lisoniy-didaktik omillari.

Reja:

Kirish

1. Qo'shma gap yangicha talqinining ta'limiy va ilmiy ahamiyati.
2. Qo'shma gapning yangicha talqini.
3. 9-sinfda qo'shma gap sintaksisini o'rganishga tayyorgarlik bosqichi.
4. Qo'shma gap turlari va faqat ohang yordaimda bog'langan qo'shma gaplarni o'rgatishning samrali metod, vosita va usullari.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Mustaqil O'zbekistonning ravnaqi uchun olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-ma'naviy sohalaridagi keng ko'lamli ishlar, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'limning barcha bo'g'inlarida ona tili o'qitishni ham tashkiliy, ham mazmuniy jihatdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Ma'lumki, yangilangan ona tili ta'limining mazmuni o'quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri bayon qilish malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Modomiki shunday ekan, ona tili ta'limi jarayonida ishga solanadigan o'quv topshiriqlarining asosiy qismini ijodiy-amaliy topshiriqlar tashkil etmog'i lozim. Ona tili ta'limi oldida turgan yana bir muammo boshlang'ich sinflarda beriladigan bilimlarning tayan sinflarda beriladigan bilimlarga nomuvofiqligidir. CHunki, bugungi kunda 5-9-sinflar ona tili ta'limining mazmuni tamoman yangilangan. Jumladan, 1) olmoshlarning nafaqat ot, sifat, son balki, fe'l, ravish, taqlidiy so'z, undov gap va hatto matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olingan. SHuning uchun olmoshlarni o'rganish,, fe'l, ravish, taqlidiy so'zlardan keyinga ko'chirilgan. 2) bir so'z turkumidan ikkinchi so'z turkumiga o'tish talqini o'zbek amaliy grammatikasidagi eng qo'pol hodisa ekanligi qayd qilinadi, ya'ni ravish doirasi so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni qabul qila olmaydigan so'zlar bilan cheklandi. 3) egalik, kelishik qo'shimchalari faqat otlar va otlarni almashtirishga xizmat qiladigan olmoshlar bilan birikadi, degan g'ayriilmiy talqinga barham berildi. 4) Qo'shma gap tarkibida «Sodda gap» deb talqin etilgan «Men borganda, ...», «U kelgandan keyin, ...» kabilar hech qachon sodda gap bo'lib kelaolmasligi sababli, kengaytirilgan birikmalar sifatida talqin etiladi. 5) qo'shma gap ta'limida gapning semantik tasnifidan voz kechildi. Qo'shma gaplarning qurilishiga ko'ra yangicha tasnifi berildi.

Til ta'limidagi bu o'zgarishlarni avvalo maktab ona tili o'qituvchilari puxta va asosli ravishda o'rganib olishlari o'z echiminikutayotgan masalalardan biri hisoblanadi. SHu boisdan malakaviy ishimizda biz til ta'limidagi o'zgarishlar ya'ni maktabda qo'shma gaplarni yangicha talqinda o'qitilishiga oid muammolar xususida o'z fikr-mulohazalarimizni bildirishga harakat qilmoqchimiz.

Maktabda qo'shma gap sintaksisini o'qitish ham juda katta ijtimoiy-iqtisodiy va ta'limiy ahamiyatga molik masala sanaladi. Uning ijtimoiy-iqtisodiy tomoni shundaki, tilning mazkur bo'limini o'rganishda o'quvchilarning umumiy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatib, o'z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantiradi hamda takomillashtirib boradi. Zero, nutqiy malakalarni takomillashtirmay turib, jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lish sira mumkin emas.

Masalaga iqtisodiy nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, oldingi amaldagi dasturlarda qo'shma gap sintaksisini o'qitish 9-sinflar uchun ajratilgan 68 soatlik dars mashg'ulotining 38 soatini tashkil etib, undan olinayotgan iqtisodiy foyda sarflanayotgan mehnat bilan sira muvofiq kelmas edi Natijada o'quvchilar amaldagi dastur talablariga ko'ra qo'shma gaplarni 11 turga ajratib o'rganishdi. SHubhasiz, buni o'rganishga anchagina mablag' sarflanishi tabiiy holdir. Ammo, bu o'rganilgan materiallar ularning nutqiy faolyaitiga, ayni bir fikrni turli shakllarda bayon qilish qilish malakalarini takomillashtirishga etarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatmayotgan edi. Qo'shma gap sintakisisini o'rganishga ta'limiy jihatdan yondashadigan bo'lsak, bu materiallarni o'rganish o'quvchiga qiyinchilik tug'dirayotgan edi. Ular haddan tashkari maydalashtirilgan holad o'rgatilar edi va natijada o'quvchilar qo'shma gaplarning ma'lum bir turini o'rgangunga qadar olin o'rgangan turini xotradian chiqarib yuborishar edi. Bu, o'z navbatida, ona tili ta'limini o'ta qiyinlashtirib, uning o'zalshtirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Maktabda qo'shma gap sintaksisini o'rgatish metodlari bo'yicha o'zbek tili o'qitish metodikasida ancha ilmiy va usuliy ishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, M.Omilxonova, N.SHukurullaev, M.Sobirova va A.Sayfullaev kabi metodis olimlarining ayni masalag bag'ishlangan ishlari e'tiborga loyiqdir. Ammo bu ishlarning barchasi 50-yillarda shakllantirilgan ona tili tizimi talabi darajasidagi bo'lib kelgan.

O'zbek tili o'qitish metodikasida qo'shma gap sintaksisini yangicha talqinda o'tish metodlari bo'yicha biz faqat I.Toshevning «Umumta'lim maktablarida qo'shma gapning yangicha talqini» mavzusidagi nomzodik dissertatsiya ishini va bir nechta metodik qo'llanmalarini ta'kidlay olamiz, xolos. Mazkur kurs ishimizda avvalo ana shu ishlarning mantiqiy davomi sifatida maktabda qo'shma gaplarni yangicha talqinda o'qitishning samarali metod, vosita va usullariga bag'ishlanadi.

Kurs ishimizda bildirilayotgan fikrlar avvalo qo'shma gap sintaksisidan o'quvchilarga beriladigan zaruriy bilim, ko'nikma va malakalar mazmunining o'zgarganligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotimizning dolzarbligi maktabda qo'shma gap sintaksisini o'zbek tilshunosligida so'nggi yillarida qo'lga kiritilgan yutuqlariga tayangan holda o'rgatish bilan xarakterlanadi. Jumladan qo'shma gaplarni 1. Faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplar; 2. YUklama vositasida bog'langan qo'shma gaplar; 3. Teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar; 4. Ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar; 5. Nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplar kabi 5 turga bo'lib o'rgatishning o'ziga xos metodlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb topildi.

SHunday qilib ishimizdan ko'zlangan asosiy maqsad 9-sinfda qo'shma gap sintaksisini yangi tasnif asosida o'qitishning samarali yo'llari, vositalari va usullarini aniqlashdan iboratdir.

1.Qo'shma gap yangicha talqinining ta'limiy va ilmiy ahamiyati

«Ta'limning maqsadi» va «ta'limning natijasi» tushunchalari bir-birri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, keyingisi oldingisining to'g'ri belgilanganligiga bog'liq. Noto'g'ri belgilangan maqsaddan samarali natija kutib bo'lmaydi. Aksincha, maqsad to'g'ri bo'lsa, natija ham samarlidir.

Qo'shma gap sintaksisini o'rganishning maqsad va vazifalarini belgilar maktabda ona tili ta'limining maqsad va vazifalari bilan chambarchas bog'liq. Ona tili o'qitish kontseptsiyasida ona tili ta'limining asosiy maqsadi: «Ta'lim oluvchida ijodiylik, mustaqil fikrlash malakalarini chuqurlashtirib, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish», - deb belgilangan.

Modomiki, ijodiy fikrlash va fikr mahsulini o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan foydalangan holda bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirish oldimizda turgan bosh masalalardan biri ekan, deak, qo'shma gap sintaksisi ham ana shu maqsadga xizmat qiladi O'quvchilar qo'shma gapni o'rganr ekan, eng so'nggi natija qo'shma gaplardan nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalariga ega bo'lmog'i lozim.

40-yillardan boshlab, aniqrog'i, A.K.Borovkov, A./ulomovlar rahbarligida yozilgan «O'zbek tili grammatikasi» I qism (Toshkent-1943), «O'zbek tili grammatikasi» II qism (Toshkent-1944),darsliklari e'lon qilinib, ommalashgandan beri hozirgi kungacha to'liqsiz o'rta maktabning yuqori sinflarida (1969 yilgacha 7-sinfda, xozirgacha 8-9-sinflarda) o'zbek tili sintaksisini o'rgnish ta'limining asosiy mazmunini tashkil etib keldi. SHundan 9-sinfda 1990-yillardan beri o'rta hisobda 36-40 soat, bevosita qo'shma gap sintaksisini o'qitishga sarflandi. Demak, deyarli 30- yillardan beri to'liqsiz o'rta umumta'lim yuqori sinf o'quvchilari qo'shma gap sintaksisidan nimani o'rgandi? Hozirgi ta'lim nazariyasida uning amaliy axamiyati faqat bitta bo'lib. U ham bo'lsa tinish belgilarini to'g'ri ishlatish

ko'nikmalarni mustahkamlashdir. Rejalashtirilgan 38 soatlik mashg'ulotlar boshqa amaliy ishlarni nazarda tutmaydi va tuta olmaydi. Maktabni tugatgan qaysi so'zlovchi biror matn yaratish ustida ishlar ekan, ya'ni tildan amaliy jixatdan foydalanar ekan, ergash gapli qo'shma gapning u nuqta qo'shma gap turi aniqlovchi ergash gapmi, payt ergash gap ekanligi haqida o'ylab turadi yoki tinish belgilaridan foydalanish jarayonida ergash gapli qo'shma gaplarning turlarini ajratish ustida fikr yuritadi.

Ergash gapning maktabda o'rganladigan 11 turini mutloqo xotiradan chiqargan xolatda ham o'quvchilar xayotiy extiyojlarini bemalol qondira oladilar. O'z-o'zidan savol tug'iladi: Qo'shma gap qurilishini o'rganishga bag'ishlangan 38 soatlik mashg'ulot nima berdi? SHu mashg'ulotni o'tkazishga har bir o'quv yilida qancha mablag' sarflanganini taxmina hisoblab ko'radigan bo'lsak, bunga o'qituvchining ish haqqi, darslik va boshqa xildagi harajatlar qo'shilsa, qo'shma gapning amalda foydalanib bo'lmaydigan bugungi talqinini o'rganish uchun O'zbekiston bir o'quv yilida qanchadan qancha mablag' sarflaydi. Samara esa kutilgandek emas. Mana shuning uchun 1980-90-yillarda ona tilidan ta'lim mazmuni va usulini yangilash muammosi eng dolzarb muammo sifatida o'rta qo'yildi

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining I chaqiriq 9-sessiyasida prezidnetimiz I.A.Karimov nutqida esa bu masala bugun jiddiyligi bilan xalq va hukumat oldiga qo'yildi. Bugun ta'lim oldida turgan eng dolzarb masalalar qachon, nimani, qanday va qaysi maqsadda o'quvchilarga o'rgatishdan iboratdir. Bu haqda Prezidentimiz I.A.Karimov shunday deydi: «...-O'quv dastur va pragrammalarni zamonaviy talablarga moslashtirib, istiqbol va kelajagimizni ko'zlagan holda tuzib olishimiz va joriy etishimiz zarur. Bugun ishlayotgan o'quv dasturining oqsoq va zaif tomonlarini albatta, inobatga olishimiz darkor» (29, 1)

SHuning uchun o'rta maktablarning yuqori sinflarida o'rganiladigan qo'shma gap mavzusi ham amaliy samarani ko'zlagan holda tubdan

yangilanishi zarur bo'lgan muammolardan biridir. Muammo echimini esa tilshunoslik fanining keyingi davrda qo'lga kiritgan yutuqlari berishi mumkin. O'zbek tilshunosligida sistemaviy talqin usullarining rivojlanishi tilning barcha sohalari kabi qo'shma gap talqiniga ham yangicha yondashishni shakllantirdi. Jumladan, iste'dodli olim R.R.Sayfullaeva o'zbek tilida qo'shma gaplarning struktur umumiy lisoniy qolipini va shu asosda qo'shma gaplarning umumiy qolipini, uning oraliq ko'rinishlarini, nutqda voqealanish shakllarini umumlashtirib, o'zbek tilida qo'shma gaplarning formal struktur talqinini ishlab chiqdi¹ Olimaning amaliy tadbiqqa ahamiyatli bo'lgan xulosasi shundan iboratki, qo'shma gapning shakllanishida eng muhim omil qo'shma gap tarkibida birlashuvchi sodda gaplarning o'zaro ma'noviy aloqalari emas, balki ularni birlashtiruvchi vositadir. SHuning uchun olim qo'shma gaplarning umumiy qolipini **Wpm, V Wpm, ya'ni bir sodda gap ikkinchi sodda gap bilan mantiqiy (semantik -formal) bog'lanib yaxlitlik hosil qiladi. Tinish belgilarining ishlatilishi esa gaplarni mantiqiy grammatik bog'lanishini taminlovchi mantiqiy qo'shish (V) vositasi bilan belgilanadi.**

Demak, o'quvchilarga ham qo'shma gap ta'limida shu mantiqiy grammatik bog'lanishni ta'minlovchi vositalarni o'rgatishga alohida e'tibor bermoq lozim. Bunday vositalar esa o'zbek tilida rang-barang bo'lib, o'z navbatida katta paradigmatic qatorni tashkil qiladi. Tinish belgilarining qo'llanilishi xususiyatiga ko'ra mantiqiy grammatik bog'lanishni ta'minlovchi vositalarni 1)ohang, 2)yuklama. 3) teng bog'lovchilar, 4)ergashtiruvchi bog'lovchilar, 5)nisbiy so'zlar kabi 5 guruhga ajratish mumkin. O'rta maktabda qo'shma gap talqinini o'rganishni shu yo'nalishda o'zgartirishni hozirgi o'zbek tilshunosligi yutuqlari talab etadi. Bu talabni esa ta'limning davomiyligi va uzluksizligi taqozo etadi.

Zero, o'quvchilar 6-7-sinflarda yuqorida sanab o'tilgan 5ta vositalarning har birini ona tili kursining morfologiya bo'limida alohida-

¹ Сайфуллаева Р.Р. +ышма гап таснифи ща=ида Ызбек тили ва адабиёти. 1990.№5 22-25

alohida lisoniy vositalar sifatida o'rganadilar. Qo'shma gaplar talqinida oldingi sinflarda o'rganilganlarga alohida e'tibor beradi. Qo'shma gap tarkibida birlashuvchi sodda gaplar orasidagi ma'noviy aloqalarni. Jumladan, ergash gapning payt yoki shart ergash gap ekanligi, ega yoki to'ldiruvchi gap ekanligini o'quvchilarga o'rgatishga zarurat bormi? Bunga zarurat bo'lmasa kerak. Chunki qo'shma gap tarkibidagi ma'noviy munosabatlari grammatik qurilish bilan emas, balki, nutq sharoiti bilan belgilanadi. Chunki,

“O'qituvchi keldi, dars boshlandi”:

“O'qituvchi keldi va dars boshlandi”:

“O'qituvchi keldi-yu dars boshlandi”:

“O'qituvchi keldi hamki: dars boshlandi”:

«O'qituvchi kelib, dars boshlandi»:

«o'qituvchi keliboq, dars boshlandi» kabi gaplarning barchasida komponentlar payt yoki shart ergash gap sifatida bog'lanishi mumkin. Lekin har bir turdagi bog'lovchi o'ziga hos xususiy ma'noga egaki, u payt yoki shart munosabatlari bilan mutloq aloqador emas. Chunki, «O'qituvchi keldi, dars boshlandi» neytral, birin ketinlik, «o'qituvchi keldi va dars boshlandi» da esa bu birin ketinlik «va» bog'lovchisi vositasida ta'kidlangan. «O'qituvchi keldi-yu, dars boshlandi», «o'qituvchi keliboq dars boshlandi», «O'qituvchi kelib dars boshlandi» shakllarida birin ketinlik, uzilmaganlik kabi ma'nolar bo'rttiriladi. Bu bo'rttirish bog'lovchi vositalar orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, tinish belgilarining qo'llanilishi qanday vositalar bilan ishlatilishiga bog'liq. SHuning uchun ham ayta olamizki, o'rta maktabda qo'shma gapni bog'lovchi vositalar orqali o'rgansak ham, tinish belgilarining qo'llanilishi hamda turli xil bog'lash vositalarining o'ziga xos ma'noviy va vazifaviy xususiyatlari o'quvchilar ongiga etkazilgan bo'ladi.

2.QO'SHMA GAPNING YANGICHA TALQINDA O'QITISH METODLARI

Qo'shma gaplar talqini masalasini ko'rib o'tar ekanmiz, biz ikki xodisani keskin farqlashimiz lozim. Bu qo'shma gaplarning lisoniy hodisa sifatidagi tasnifi va qo'shma gaplarning nutqiy hodisa sifatidagi tasnifi. Qo'shma gaplarni lisoniy hodisa sifatida tasnif etganda ularning asosiy lisoniy qolplarigina tasnif manbai bo'ladi. Bunday tasnifni R.So'yfullaeva bergan edi va qo'shma gaplarning lisoniy qoliplarini 3 turini ajratgan edi. Bular:

WPm, WPm

WPm--> WPm

WPm <-- >WPm²

Ma'lumki, lisoniy qoliplar nutqda voqealanuvchi minglab xususiyatlarni o'zida mujassam etuvchi umuiyliklar bo'lib, ular muayyan moddiy shaklni faqatgina nutq sharoitida egallaydi. Bundan xulosa qilish mumkinki, R.sayfullaeva tomonidan ajratilgan qo'shma gaplarning har uchala lisoniy qolipi nutqda qo'shma gaplarning muayyan turi sifatida voqealanadi va o'quvchilar bu qo'shma gaplar bilan kundalik nutq faoliyatiga to'qnashadilar. SHuning uchun o'quvchilar qo'shma gaplarning bunday turini farqlay olishlari ularni to'g'ri qo'llay olishlari, qo'shma gaplarda tinish belgilarini bog'lash vositalarini yozma va og'izaki nutqda to'g'ri qo'llay olshishlari kerak. Lekin, o'quvchilar qo'shma gaplarning lisoniy qoliplarini o'zlashtira olmaydilar, aniqrog'i, bu qoliplar ularning ongidan o'rin olgan, lekin uning ongidan ajratilgan holda tahlil etish qobiliyatiga o'quvchilar qodir emas. SHuning uchun qo'shma gaplarning lisoniy qoliplari til tadrizi nazariyotchisi va o'qituvchi uchun ma'lum bir asos, fond, zamin vazifasini o'tashi hamda o'quvchilar asosan nutqda voqealangan muayyan qo'shma gap turlarining tasnifi bilangina tanishishlari lozim. SHuning uchun nazariyotchi-tadrixchi lisoniy qoliplar

² P.P.Сайфуллаева. Курсатилган адабиёт 702-84-б

asosida o'zbek nutqidagi qo'shma gaplarning tasnifi asoslarini va ularni o'quvchilarga, amaliy vazifalarni xal qilish nuqtai-nazardan, etkazish yo'llarini ishlab chiqish lozim. Buning uchun tadrizchi-nazariyotchi borgan yo'lni, amaliyotning teskarisini amalga oshirish zarur. Nazariyotchi-tilshunos o'zbek nutqidagi qo'shma gaplarning yuzlab turlarini uch asosiy lisoniy qolplarda birlashtirgan bo'lsa, nazariyotchi-tadrizchi shu lisoniy qoliplarning nutqda voqealanish ko'rinishlari asosida ish tutishi lozim. Mana shu nuqtai-nazardan o'zbek tilidagi qo'shma gaplar lisoniy qolplarning nutqda voqealanish xususiyatini ko'rib o'tamiz:

1.(WPm, WPm.) qolipidagi qo'shma gaplar

Bu lisoniy qolip nutqda voqealanishda quyidagi xususiyatlarga ega:

1.Qo'shma gap tarkibidagi tarkibiy qisimlarining markazi shunday shakllanganki, ular mustaqil sodda gaplarning markazi sifatida nutqda bimalol voqealana oladi, shuning uchun bunday qolipli qo'shma gaplar nutqda mustaqil qo'llana olish qobdiliyatiga ega bo'lgan sodda gaplarning ma'lum nutq sharoitida birikishidan iborat. CHunonchi, (Bahor keldi)Q(Borliq yashnab ketdi)qBahor keldi (..) borliq yashnab ketdi.

2.Bunday qo'shma gaplarni bir-biridan farqlashdagi asosiy vosita bog'lash vositasidir. Bog'lash vositasi bu qo'shma gaplarga rang-barang ma'noviy munosabatlar kiritadi. SHuning uchun bunday qo'shma gaplarning nutqiy tasnifi faqat bog'lovchi vositalar asosida amalga oshirilishi mumkin.

3.Qo'shma gap tarkibiy qisimlarini bog'lovchi vositalar asosan 4 turini ajratish mumkin:

1. Faqat ohang (tinish belgi) vositasida bog'langan qo'shma gaplar. (O'qituvchi keldi dars boshlandi).
2. YUklama vositasida bog'langan qo'shma gaplar. (O'qituvchi keldi-yu, dars boshlandi)
3. Teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar. (o'qituvchi keldi va dars boshlandi)

4. Ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar. (O'qituvchi keldi, shuning uchun dars boshlandi.)

Bu qo'shma gaplarning turlari munosabatlariga ko'ra bir-biridan ancha farq qilsa ham, bu farqlar qo'shma gap qurilishi bilan aloqador bo'lmay, ulardagi bog'lash vositalarining ma'noviy va vazifaviy farqlari bilan bog'liqdir. Buni bir soatlik lisoniy munosabatning xilma-xil ma'noviy ko'rinishlari bilan qiyoslash mumkin. CHunonchi, (vositasiz to'ldiruvchiQfe'l) qolipi o'timlife'lning vositasiz to'ldiruvchi bilan birikishining umumiy qolipidir. Bu qolip, (uyni qurmoq) va (uyni buzmoq) nutqiy so'z birikmalarida bir xil voqealanadi. Vaholangki, (uyni qurmoq) va (uyni buzmoq) so'z birikmalari ma'no jihatidan umuman teskaridir. Lekin bu teskarilik sintaktik qurilish bilan emas, sintaktik qurilmaning lug'aviy to'ldirishidagi ma'noviy zidliklar bilan bog'liqdir. Sintaktik qobiliyat jihatidan bir xil bo'lgan- o'timli fe'l bo'lgan "qurmoq" va «buzmoq» fe'llari ma'no jihatidan qarama-qarshidir. Xuddi shunday: 1. Navro'z keldi, bayram shodiyonalari boshlandi. 2. Navro'z keldi va bayram shodiyonalari boshlandi. 3. Navro'z keldi, shuning uchun bayram shodiyonalari boshlandi. 4. Navro'z keldi-yu, bayram shodiyonalari bogshlandi nutqiy xodisalaridagi ma'noviy xilma-xillik ham mana shu gaplarni o'zaro bog'lovchi vositalarning ma'noviy xilma-xilligi bilan bog'liq. SHuning uchun qo'shma gaplarning bunday xillarini o'tishda tadrizchi va o'qituvchi o'quvchilarning morfologiya bo'limidan olgan yuklamalar, teng ergashtiruvchi bog'lovchilarning ma'no xamda vazifalari haqidagi bilimlariga tayanib ish ko'rish lozim. O'quvchi shuning uchun: chunki kabi ergashtiruvchi bog'lovchilarning sabab ma'nosini anglatishlari bilan tanishdir. Qo'shma gaplarning (Navro'z keldi, shuning uchun bayram shodiyonalari boshlandi) gapida sabab yoki natija ma'nosining voqealanishi yoki «Navro'z keldi va bayram shodiyonalari boshlandi», «Navro'z keldi-yu, bayram shodiyonalari boshlandi» gapida birin-ketinlik munosabatlarining voqealanishi bog'lovchi va yuklamalarning ma'no

hamda vazifasi bilan bog'liqdir. Bundan xulosa qilib ayta olamizki, nutqda eng ko'p qo'llaniladigan (Wp_m, Wp_m,) lisoniy qolipli hosilalari orasidagi ma'noviy va vazifaviy munosabatlar qo'shma gap tarkibiy qisimlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiluvchi vositalarning paradigmatic ma'nolari bilan bog'liqdir. Bunda bitta umumlisoniy qonuniyatning paradigmakazolarining mo'tadil (neytral) va belgili a'zolariga ajratilishi qonuni voqealanishini hisobga olmoq zarur.

4. Sistemaviy tahlil tadqiqotlari lisoniy paradigmalari (xoh ular lug'aviy, xoh ular morfologik yoki sintaktik bo'lsin) tahlilida shunday xulosaga keldilarki, lisoniy paradigma bir mo'tadil (neytral, dominanta) a'zo atrofida birlashadi. Bu mo'tadil a'zo ma'lum matniy sharoitda qolgan barcha a'zolar ma'nosini ham ifodalay oladi. Paradigmaning mo'tadil a'zodan boshqa a'zolari o'ziga xos bo'lgan ma'no vazifalarini bajarishga ixtisoslashgan.

Qo'shma gaplar tarkibida bu ixtisoslashish teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar hamda yuklamalarning ma'nolari bilan bog'liqdir. YUklamalar va bog'lovchilar qo'shma gap tarkibiy qismlari orasida ma'lum bir turdagi ma'noviy munosabatlarni kiritadi. Bu tizimda faqat ohang (tinish belgilar) bilan bog'langan qo'shma gaplar mo'tadil, netral a'zo vazifasini o'taydi. SHuning uchun «Navro'z keshldi va bayram shodiyonalari boshlandi» gapi ma'lum nutqiy sharoitda:

1. Navro'z keldi, bayram shodiyonalari boshlandi - umumiy ko'rinishi sifatida olinadi va:

2. *Navro'z keldi-yu, bayram shodiyonalari boshlandi.* 3. *Navro'z keldi va bayram shodiyonalari boshlandi.* 4. *Navro'z keldi, shuning uchun bayram shodiyonalari boshlandi.* 5. *Navro'z keldi shu sababli bayram shodiyonalari boshlandi* qo'shma gaplari undan hosil qilinadi. Bunda o'qituvchi «Navro'z keldi, bayram shodiyonalari boshlandi» tipidagi gaplarni bergach, o'quvchilarning xotirasida yuklama va bog'lovchilarni bir-biriga bog'lash vazifasi hamda ma'nolari haqidagi bilimlarini tiklash lozim. SHu asosda

dastlabki gapdan yuklama va bog'lovchi yordamida hosilalar tashkil etadi. So'ngra ohang (tinish belgilari)ning umumlashtiruvchi bog'lash vazifasi haqida tushuncha beradi.

Ikkinchi yo'l. Bunda o'qituvchi avval yuklamali, bog'lovchili gaplarning alohida-alohida ko'rinishlarini tushuntirib, keyin ularning hammasini faqat ohang bilan (tinipsh belgi) bog'langan qo'shma gaplarga birlashtirish mumkin.

2. {WPm - >WPm} qolipli qo'shma gaplar

Bu lisoniy qolipning nutqiy voqeanishida shunday xususiyat mavjudki, morfologik jihatdan tugal shakllangan ikki kesim shaklidan bittasi mustaqil qo'llanish qobiliyatiga ega emas. Bunday kesim nutqda mustaqil voqeanishi uchun o'ta xususiy ixtisoslashgan matn talab qiladi. U mustaqil qo'llanganda ma'no va vazifasi qo'shma gap tarkibidagi ma'no va vazifasidan tubdan farq qiladi. Bunday kesim shakli o'zbek tilida shart mayli bilan ifodalangan kesimdir. Qo'ng'iroq chalinsa, dars boshlanadi. Bu gapdagi «chalinsa» kesimi mustaqil holda gap bo'lib kela olmaydi. Bunday qo'shma gaplar R.Sayfullaeva tasnifida o'z navbatida ikki guruhga ajratiladi Bular:

1) tobelangan tarkibli qo'shma gaplar (qo'ng'iroq chalinsa, dars boshlanadi):

2) mutonosib aloqali qo'shma gaplar (Qachon qo'ng'iroq chalinsa, o'sha vaqt dars boshlanadi)

3. {WPm <-> WPm} qolipida qo'shma gaplar.

Bu lisoniy qolipning o'ziga xos tomoni shundaki, har ikkala kesim nutqda voqeanishda bir-birini taqozo qiladi. YA'ni biri ikkinchisiz qo'llana olmaydi. Bunday qolipli qo'shma gaplarni olim R.Sayfullaeva mutonosib aloqali qo'shma gaplar deb nomlaydi³

³. P.Сайфуллаева. Курсатилган манба.

{WPm <-> WPm}qolipli qshma gaplarni nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplar ham hosil qilishi mumkin. Masalan, Otaxon qancha kuyib gapirsa, bolalar shuncha berilib tinglar edilar. Qaysi joyda kurash bo'lmasa, u joyda o'sish ham bo'lmaydi. Bunday qo'shma gaplarda nisbiy so'zlar har ikkala kesim bir-birini taqozo etishini anglatadi. Bunday qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni ajratib qo'llab bo'lmaydi. Bundan tashqari, {WPm <-> WPm} shakliga ega bo'lgan "Alisher byuiznikiga kelar edi, biz birga maktabga borar edik" kabi qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni mustaqil holda qo'llaganda umuan boshqacha ma'no ifodalashi mumkin. SHu sababli ham bunday qo'shma gaplarning tarkibidagi sodda gaplar alohida-alohida qo'llana olmaydi

Xulosa qilib aytganda, biz qo'shma gaplarni faqat ohang (tinish belgi) vositasida bog'langan qo'shma gaplar, yuklama vositasida bog'langan qo'shma gaplar teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar va nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplar kabi 5 turga bo'lib o'rganishni ma'qul deb topdik.

3. 9-sinfda qo'shma gap sintaksisini o'rganishga tayyorgarlik bosqichi.

Ma'lumki, maktab o'quvchilari 5-sinfda «Sintaksis va punktuatsiyaga» oid zaruriy dastlabki ma'lumotlarni o'rganishda ham, morfologiya hamda sodda gap sinaksisini o'rganishda ham ular «Kesim gapning markazi» degan talqinga duch kelishmagan. Bu talqinni o'quvchilar ongiga singdirmay turib, ularga qo'shma gapning yangi tasnifini berishning sira iloji yo'q. SHuni nazarda tutgan holda biz 9-sinfda «Qo'shma gaplarning tasnifi» mavzusini o'rganishdan oldin ularga muvofiqlashtiruvchi material sifatida «Kesim gapning markazi» degan mavzuni kiritishni zaruriyat deb bildik. «Kesim gapning markazi» degan mavzu 9-sinf o'quvchilari uchun tamomila yangi mavzu bo'lib, keyingi

bosqichlarda «Qo'shma gap» hamda qo'shma gapning tasnifini puxta o'rganish an shu mavzuni o'rganish bilan chambarchas bog'langan. Mazkur mavzuni o'rganishda o'qituvchi o'quvchilarda quyidagi zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarning hosil qilinishiga alohida e'tibor qaratadi.

1. Zaruriy bilimlar

- Kesim gapning markazi ekanligi;
- Ega va qolgan bo'laklarning kesim atrofida birlashishi;
- Faqat kesimdan iborat gaplarning ixcham gap ekanligi;

2. Zaruriy ko'nikma va malakalar

- Gapning kesimini markazini topa olish;
- Kesimning gapdagi mavqeyi haqida mustaqil xulosa chiqara olish;
- Faqat kesimdan iborat gaplarning egasini tiklay olish;
- Sodda yig'iq gaplarni, sodda yoyiq gaplarga aylantira olish.
- Kesimdan so'roq berish orqali gapni kengaytira olish;
- sodda yoyiq gaplardan iborat matn hosil qila olish.

Belgilangan zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni puxta egallash uchun o'quvchilarga quyidagi o'quv topshiriqlaridan foydalanildi:

1-mashq. 1-topshiriq. Berilgshan gaplarning kesimini aniqlang.

1. Men badiiy kitoblarni sevib o'qiyman. O'quvchilar bog'dan olma uzdilar. 3.Biz vaqtdan to'g'ri foydalanamiz. 4. Maslahat uchun Tolipovni chaqirdik. 5.O'zbekistonda kuz boshlandi. 6. Alisherbek g'azalni ifodali o'qidi.

2-topshirq. Kesimdan so'roq berib, so'z birikmalarini hosil qiling.

2-mashq. 1-topshiriq. Berilgan kesimlardan sodda yig'iq gap hosil qiling.

1. YOzdim. 2.Terdi. 3. O'ynadilar. 4. O'qiyimiz. 5.Aytasan. 6. Kuyladilar.

2-topshiriq. Sodda yig'iq gaplardan sodda yoyiq gshaplar hosil qiling.


3-topshiriq. Kesimning gapdagi mavqeyi haqida xulosa chiqaring.

Bilib qo'ying. Kesim gapningg markazi bo'lib, ega va qolgan bo'laklar uning atrofida birlashdi.

Zukkolarga topshiriq.

Berilgan namuna asosida gap bo'laklarining keimga bog'lanish chizmasini chizing.

Namuna: Men kecha Dilfuza bilan bog'da gul terdim.



1. Biz kecha toqqa sayrga chiqdik. 2. U ertalab Nodirjon bilan daraxtlarni oqladi.3. Anvarjon otasi bilan ta'tilda Toshkentga bordi. 4. Kechqurun osmonni bulut qopladi. 5. Sayida yana kutubxonaga ketdi. (A.Q.)

3-mashq. Sodda yig'iq gaplardan iborat ushbu matnni kesimdan so'roq berish orqali kengaytirib, sodda yoyiq gaplardan iborat bo'lgan matnga aylantiring.

DAM OLISH KUNI

Men ishladim.(qachon, qaerda, kimlar bilan) Ukam oqladi. (nimalarni, nima bilan) Men ekdim (nima, qaerga) Singlim o'tqazdi (nimalarni, qaerga) Dam olish kuni o'tdi. (kim uchun, qanday)

Ko'rinib turibdiki, mazkur mavzu yuzasidan o'quv materiali deduktiv asosda emas, balki induktiv asosda berilgandir. O'quvchilar darrov «Kesim gapning markazi» degan xulosaga kelmaydilar. Keltirilgan birinchi va ikkinchi mashq turlari ularga kuzatish hamda taxlillardan umulashma hosil qilishga sharoit yaratadi. Bu o'z navbatida o'quvchini ta'lim jarayonining subektiga va o'quv topshiriqlarini bajarish jarayonida faol ishlovchiga aylantirish imkonini beradi. Bu mavzuni o'rganishda berilgan gaplarning kesimini aniqqlash (Masalan, Men badiiy kitoblarni sevib *o'qiyman*. Kumush qish boshlandi) v.h.

Berilgan kesimdan sodda yig'iq gaplar hosil qilish. (Masalan, yozdim – men yozdim. O'ynadilar – ular o'ynadilar, Aytasan – sen aytasan. V.h.)

Hosil qilingan sodda yig'iq gaplarni yoyiq gaplarga aylantirish (Masalan – men yozdim – men insho yozdim. Ular o'ynadilar – ular o'yingohda futbol o'ynadilar v.h.); Kesimning gapdagi mavqeyi haqida mustaqil ravishda hukm chiqarish, namunaga asoslangan holda gap bo'laklarining kesimga bog'lanish chizmasini tushuntirish. (Masalan, Men kecha kamina bilan bog'da gul terdim. «terdim» - gapning markazi. Gap markazi men qaerdan nima kim bilan, qachon tartibida bog'lanadi.) Singarilarga katta e'tibor qaratiladi.

O'quvchilar berilgan topshiriqlarni bajarib bo'lishgach, mashg'ulot oxirida kesim gap markazi bo'lib, qolgan bo'laklar ular atrofida birlashadi» degan xulosaga keladilar.

Bunday tipdagi ijodiy-amaliy ishlar qo'shma gaplarni tasniflashga zamin hozirlaydi va yangi tasnifni puxta o'zlashtirish imkonini beradi.

Xullas, bu mavzuni o'rganishda bog'lovchi vositalar asosida qo'shma gaplar hosil qila olish, bog'lovchi vositalarning gapdagi o'rmini aniqlay olish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga e'tibor kuchaytirildi.

4. Qo'shma gap turlari va faqat ohang (tinish belgi) vositasida bog'langan qo'shma gaplarni o'rgatish metodlari

«Qo'shma gap turlari» mavzusini o'rganishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad qo'shma gapning yangi tasnifi xususida o'quvchilarda zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdir. Bu mavzuni o'rganish berilgan sodda gaplardan qo'shma gaplarni aniqlash bilan boshlanadi.

Kuzatish uchun gaplar:

1. Tong otdi. Atrof go'zallashdi. 2. Jala quydi. Bolalar uy-uyiga tarqaldi. 3. Otaxon nasixat qildi. Hamma tingladi.

Keyingi topshiriqda berilgan matndagi ajratib ko'rsatilgan so'z va qo'shimchalarga e'tibor berish, ularning bir-biridan farqini izohlash, o'quvchilar zimmasiga havola qilinadi.

Bu bilan o'quvchilar bog'lovchilarning gapdagi vaz-ifasini anglay olishga harakat qiladilar. SHundan so'ng qo'shma gaplar bog'lovchi vositalarga ko'ra quyidagicha 5 turga bo'linishni o'quvchilarning bilib qo'yishlari ta'qkidlanadi.

1. Faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplar.
2. YUklamalar vositasida bog'langan qo'shma gaplar
3. Teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar
4. Ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar
5. Nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplar

Navbatdagi topshiriqlar berilgan qo'shma gaplar tarkibidagi bog'lovchi vositalarni aniqlash va izohlash, berilgan sodda gap juftlarini ham yuklama, ham bog'lovchi vositasida biriktirish kabilardan iborat bo'ladi.

Faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gap haqida ma'lumot berishda gapda uyushiq bo'laklarning ohang vositasida bog'langan holatlari sodda gap juftlarining ohang orqali bog'lanish holatlari bilan qiyoslanadi. O'quvchilar dars mashg'ulotlarini berilgan gap juftlarini diqqat bilan o'qib,

bu gaplardagi vergulning vazifasini aniqlash hamda sharhlashdan boshlaydilar.

SHundan so'ng o'quvchilar sodda gap juftlarini ohang yordamida bog'lab, qo'shma gaplar hosil qilishga kirishadilar. Masalan, 1. Kiyimning yangisi yaxshi. Do'stning eskisi yaxshi. 2. Kun chiqdi. Qushlar sayrash boshladi. 3. Bugun havo ochiq. Sayohatga chiqsak bo'ladi singari gaplar ohang yordamida biriktirilib, qo'shma gapga aylantiriladi.

YUklamalar vositasida bog'langan qo'shma gaplarni o'qitish metodlari

Qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarning o'zaro bog'lanish vositasiga ko'ra yana bir turri yuklama vositasida bog'langan qo'shma gaplardir. Qo'shma gapning bu turini o'rganishdan oldin yuklamalar xususidagi 7-sinfda o'rganilgan bilimlarini xotirada tiklashga to'g'ri keladi. Ana shu maqsadda o'quvchilardan qo'shimchasimon va so'zsimon yuklamalarni alohida-alohida ustunchalarga bo'lib ro'yxat qilish talab qilinadi. O'quvchilardan yuklamalarning bu har ikkala turi orasidagi farq so'rab olinadi. Egallangan bilimlarni xotirada tiklashga oid bir qator ishlash bajarilgach, ulardan yuklamalar qanday vazifa bajarayotganligi haqida xulosa chiqarish talab etiladi. SHubhasiz, bajarilgna ijodiy-amaliy ishlar natijasida yuklamalarning qo'shma gaplar sodda gaplarni o'zaro bog'lashga xizmat qilishi xususida xulosa chiqariladi.

Bajarilgan ijodiy-amaliy ishlar yuklamalar vositasida bog'langan qo'shma gaplarga ta'rif ta'rif berish imkoniyatini yaratadi. O'quvchilar o'qituvchining «Qanday gaplarga yuklamalar vositasida bog'langan qo'shma gaplar deymiz»-degan savoliga «Sodda gaplarning o'zaro yuklamalar yordamida bog'lanishidan hosil bo'lgan qo'shma gaplar yuklamalar vositasida bog'langan qo'shma gaplar hisoblanadi», - degan xulosaga keladilar.

Qo'shma gapning bu turini o'rganishda shunday gaplarning ohangi ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilardan yuklamalar

vositasida bog'langan qo'shma gaplarni o'qib, ularning ohangiga e'tibor berish talab etiladi. Bu o'rinda turli xildagi yuklamalar vositasida bog'langan qo'shma gaplarni tanlashga alohida e'tibor qaratish lozim. SHuni ham ta'kidlash joizki, yuklamalarning urg'u qabul qilmasligini bilsinlar, o'quvchilar har bir yuklama vositasida bog'langan qo'shma gapga monand misollar tanlansinlar va ularning o'qilish ohangi ustida ish olib borsinlar.

O'quvchilarning gap qurish malakalarini takomillashtirish maqsadida boshlanish qismi berilgan sodda gaplarni yuklamalar vositasida bog'lab, davom ettirish (Masalan: 1.Quyosh chiqdi... 2.O'qituvchi sinfga kirdi... 3.Mensenga aytim v.h.) ikkinchi qismi berilgan gaplarning birinchi qismini tiklab ularni yuklamalar vositasida bogg'lash. Masalan: 1..., Albatta, ertaga boraman. 2..., Havo isimadi.

YUklamalar vositasida bog'langan qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi yuzasidan egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarini takomillashtirish maqsadida berilgan qoliplar asosida qo'shma gaplar xosil qiliish topshiriladi. Masalan: 1____-yu, _____. 2.____-ku _____.3.____-da, _____.4. _____ axir_____. 5.____-ya, _____

singari qoliplar berilgan bo'lsa ular shu qoliplar asosida qo'shma gaplar hosil qiladilar va bu gaplarda vergulning ishlatilish sababini tushuntiradilar.

Xullas yuklamalar vositasida bog'langan qo'shma gaplarni o'rganishda asosiy e'tibor sodda gap juftlarini turli xil yuklamalar vositasida bog'lash hamda ularning ma'nosi imlosi va ohangi ustida ishlashga qaratilishi lozim. Ayniqsa mazkur mavzuni o'rganishda gap tuzish va matn yaratish malakalarini takomillashtirish o'qituvchining diqqat markazida tradi.

Teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplarni o'rgatish metodlari

Bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplarni o'rganishdan oldin 7-sinfda bog'lovchi yuzasidan egallangan bilimlarni takrorlash rejalashtiriladi. Buning asosiy sababi shundaki, o'quvchilarning teng bog'lovchilar va ergashtiruvchi bog'lovchilar yuzasidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalarini xotirada tiklamay turib qo'shma gapni o'qitishga kirishib bo'lmaydi. Chunki sodda gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan asosiy vositalardan biri bog'lovchilardir. 7-sinfda uyushuq bo'laklarni biriktirishga xizmat qiladigan bog'lovchilarni sodda gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan bog'lovchilar bilan o'zaro qiyoslab ularning o'xshash va farqli tomonlarni aniqlay oladilar. Teng bog'lovchilar o'z navbatida biriktiruv bog'lovchilari, zidlov, ayiruv bog'lovchilariga bo'linadi. 9-sinfda avvalo shu egallangan zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarini xotirada tiklash xamda kengaytirish zaruriyati bor. Biz ana shu maqsatda quyidagi ijodiy-amaliy o'quv topshiriqlaridan foydalanishni tavsiya qilamiz. Quyidagi mashqda o'quvchilardan bog'lovchilar bilan bog'langan qo'shma gaplarni teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplarga ajratish so'raladi. Kuzatish uchun gaplar: 1. Oy qizning ko'ngli yorishganday bo'ldi va qayg'u hissiga g'urur hissi qo'shilib ketdi. 2. Hamma mehmonlar ko'rpachaga o'tirdi va odatiy takalluflar bilan dasturxonga qaraldi. 3. Kuz keldi, shuning uchun dehqonning tashvishi ortdi.

Navbatdagi topshiriqda esa gap juftlaridan bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar hosil qilish so'raladi. 1. Soat 8 bo'ldi. qo'ng'iroq chalindi. 2. Bu yil bizda suv ko'p edi /alla mo'l bo'ldi.

O'quvchilar bog'lovchilarning turlari va ularning gapdagi vazifasi bilan tanishtirilgach bu bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplarning har bir turi alohida-alohida o'rganiladi. Dastlab o'quvchilar hukimiga teng bog'lovchilar vositasida bog'langan gaplar mavzusi havola etiladi. Navbatdagi ijodiy amaliy ishda o'quvchilardan nuqtalar o'rniga tegishli bog'lovchilarni qo'yib, gaplarni ko'chirish talab etiladi.

Gaplar:

1.Zal suv quygandek bo'ldi...xonanda qo'shiq boshladi. 2.alisher ikkinchi sinfda o'qiydi... yirik romanlarni bemalol o'qiy oladi. 3.Kech kirdi...atrof qorong'ulashdi. 4.Hamma keldi... Mehriniso yo'q edi.

Bu ijodiy amaliy topshiriq o'quvchilarning qo'shma gaplar doirasida teng bog'lovchilarni to'g'ri qo'llay olish ko'nikma va malakalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Navbatdagi bosqichda esa o'quvchilar «Teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplarda vergulning ishlatilishi» mavzusi bilan tanishadilar. Bu mavzu o'quvchilardan berilgan gaplarning zarur o'rinlariga vergul qo'yib, uning qo'llanilish sabablarini tushuntirish bilan boshlanadi.

Gaplar:

1.Olamni ko'rib keldim ammo dev yo'q ekan. (Ertakdan). 2.Bugun dam qor yog'di, dam yomg'ir yog'di. 3.Bo'sh erlar ko'p biroq bu erlarning hammasi yoz oylari quyosh tagida qovjirab qoladi (A.Q.) 4.Tashqarida yomg'ir tingan lekin osmon bulut (P.Q.)

Bu ijodiy-amaliy topshiriqdan so'ng zidlov bog'lovchilaridan oldin vergulning qo'llanilishi yuzasidan umumlashma xosil qilindi.

Ma'lumki, o'quvchilar qo'shma gaplar doirasida vergulni qo'llashda qiynalishadi. Biz ana shuni nazarda tutgan holda tajriba-sinov guruhlarida berilgan teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplarning bog'lovchi vositalarini ma'nodosh bilan almashtirib, ularni o'zaro qiyoslashni topshirdik. Qi1slash uchun gaplar: 1.Havo ochildi, ammo quyoshning harorati sezilmadi. 2.Kutubxonaga bordim, lekin men istagan kitob yo'q ekan. 3.Zal dam g'uvillab qo'yar. dam onda-sonda qarsak yangrab, yana ttinardi (A.M.)

Mazkur mavzuni o'rganishda takror xolda keluvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplarning mazmunini saqlagan xolda shaklini o'zgartirishda alohida e'tibor berildi.

Xullas yuqoridagi amaliy-ijodiy topshiriqlarni bajarishda teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni bog'lovchi vositalarning qo'llanilishi, teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplarda vergulning qo'llanilishi va bunday qo'shma gaplar tarkibiy qismlari orasidagi ma'noviy munosabatlar kabi zaruriy bilimlarni o'quvchilar o'zlashtirib boradilar. Bundan tashqari ularda sodda gap juftlaridan teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar xosil qila olish, teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar tarkibida vergulni to'g'ri qo'llay olish. Matn yaratish jarayonida bunday qo'shma gaplarni to'g'ri qo'llay olish bog'lovchi vositalarni ma'nodoshi bilan almashtira olish, qo'shma gaplarga ta'rif bera olish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga e'tibor kuchaytirildi.

Xulosa

1. O'rta maktabda qo'shma gapni bog'lovchi vositalar orqali o'rgansak ham, tinish belgilarining qo'llanilishi hamda turli xil bog'lash vositalarining o'ziga xos ma'noviy va vazifaviy xususiyatlari o'quvchilar ongiga etkazilgan bo'ladi.

2. Qo'shma gaplarni faqat ohang (tinish belgi) vositasida bog'langan qo'shma gaplar, yuklama vositasida bog'langan qo'shma gaplar teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar va nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplar kabi 5 turga bo'lib o'rganishni maqsadga muvofiqdir.

3. Bog'lovchi vositalar asosida qo'shma gaplar hosil qila olish, bog'lovchi vositalarning gapdagi o'rnini aniqlay olish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga e'tibor kuchaytirildi.

4. YUklamalar vositasida bog'langan qo'shma gaplarni o'rganishda asosiy e'tibor sodda gap juftlarini turli xil yuklamalar vositasida bog'lash hamda ularning ma'nosi imlosi va ohangi ustida ishlashga qaratilishi lozim.

Ayniqsa mazkur mavzuni o'rganishda gap tuzish va matn yaratish malakalarini takomillashtirish o'qituvchining diqqat markazida tradi.

5. Sodda gap juftlaridan teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar xosil qila olish, teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar tarkibida vergulni to'g'ri qo'llay olish. Matn yaratish jarayonida bunday qo'shma gaplarni to'g'ri qo'llay olish bog'lovchi vositalarni ma'nodoshi bilan almashtira olish, qo'shma gaplarga ta'rif bera olish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga e'tibor kuchaytirildi.

6. Ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplarni o'zaro bog'lash, ergash gapning bosh bo'laklariga bo'lgan munosabatini anglash, ergashtiruvchi bog'lovchilarning ma'nosi, imlosi va ohangi ustida ishlashga qaratilishi lozim.

7. Nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplar mavzusini o'rganishda o'quvchini ta'lim jarayonining subektiga aylantirishga e'tibor kuchaytirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullaev A.B. Qo'shma gap sintaksisi. Buxoro 1989.
2. Abduraxmonov R. Ergash gapli qo'shma gaplar masalasi. O'zbek tili grammatikasi va punktuatsiyasi Toshkent 1959.
3. Abduraxmonov R. Qo'shma gaplarning tarixiy taraqqiyoti xaqida. 1960 35-41-b.
4. Asqarova M.A. Qo'shma gapning ko'chirma turi xaqida. O'zbek tili va adabiyoti masalalari 1691, 1-son. 35-42-b.
5. Asqarova M.A. Xozirgi zamon o'zbek tilida qo'shma gaplar Toshkent 1960.
6. Karimov I.A. Barkamol avlod o'zbekiston taraqqiyotining poydevori (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 9-sessiyasida so'zlagan nutqi)
7. Ne'matov H. Fe'llarda mayil va zamon kategoriyalarining munosabati. j o'zbek tili va adabiyoti 1-son. 31-34-b.
8. Ne'matov H. v.b. ijodiy matn ustida ishlash Toshkent 1997-y.
9. Sayfullaeva R.R. Ergash gaplarning tasnifi. O'zbek tili va adabiyoti 1989 5-son 21-25-b.
10. Sayfullaeva R.R. Xozirgi o'zbek adabiy tilida qo'shma gaplarning shakl vazifaviy talqini Toshkent 1993.
11. Sayfullaeva R.R. Xozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplarning formal, funktsional talqini Toshkent 1994.
12. /ulomov A.Q. Ona tili darslarida o'quvchilarning o'quv biluv faoliyatini aktivlashtirish.
13. /ulomov A.Q. Ona tili o'qitish jarayonida aktivlik printsipini amalga oshirishning nazariy asoslari Toshkent 1989.

